




2021- yilning yanvar-mart oylarida Qoraqalpog'iston Respublikasida asosiy kapitalga investitsiyalar

2021- yilning yanvar-mart oylarida investitsion faoliyati pasaygani kuzatilib, asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmini o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 99,6 % ni tashkil etdi.




Jami investitsiyalar hajmida, markazlashmagan moliyalashtirish manbalari hisobidan moliyalashtirilgan asosiy kapitalga investitsiyalarning ulushi, o'tgan yilning mos davridagi ulushiga nisbatan 88,0 %, yoki 1230,9 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Mos ravishda, markazlashgan moliyalashtirish manbalari hisobidan moliyalashtirilgan asosiy kapitalga investitsiyalarning ulushi, o'tgan yilning mos davridagi ulushiga nibatan 12,0 %, yoki 167,6 mlrd. so'mni tashkil etdi.



Markazlashgan moliyalashtirish manbalari hisobidan investitsiyalar tarkibi, % da




Markazlashmagan moliyalashtirish manbalari hisobidan investitsiyalar tarkibi, % da



2021- yilning yanvar-mart oylarida korxona va tashkilotlarning o‘z mablag‘lari hisobidan moliyalashtirilgan asosiy kapitalga investitsiyalar – 506,3 mlrd. so‘m yoki jami asosiy kapitalga investitsiyalarning 36,2 % ini tashkil etdi. Aholi mablag‘lari hisobidan jami asosiy kapitalga investitsiyalarning 12,6 % i yoki 177,6 mlrd. so‘mi o‘zlashtirildi.

To‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar hisobidan o‘zlashtirilgan investitsiyalar hajmi 63,0 mlrd. so‘mni tashkil etdi va o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 6,1 % punktga ko‘payib, 4,5 % ni tashkil etdi.

Asosiy kapitalga investitsiyalarni moliyalashtirish manbalari bo‘yicha tarkibi, mlrd. so‘m





QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI STATISTIKA BOSHQARMASI

Shuningdek, tijorat banklar kreditlari va boshqa qarz mablag'lari hisobidan 251,2 mlrd. so'm (jami asosiy kapitalga investitsiyalarning 18,0 % ini tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 10,5 % punktga kamaydi), O'zbekiston Respublikasi kafolati ostidagi xorijiy kreditlar 58,9 mlrd. so'm (4,2 % va 30,7 % ni tashkil etdi), kafolatlanmagan va boshqa xorijiy investitsiya va kreditlar 232,8 mlrd. so'm (16,7 % va 2,9 martaga ko'paydi), Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi 24,3 mlrd. so'm (1,8 % va 35,7 % punktga ko'paydi), Respublika byudjeti 84,2 mlrd. so'm (6,0 % va 23,2 % punktga kamaygan), Suv ta'minoti va kanalizatsiya tizimlarini rivojlantirish jamg'armasi 0,2 mlrd. so'm (o'tgan yilning mos davriga nisbatan 1,5 %) miqdorida asosiy kapitalga investitsiyalar o'zlashtirildi.

Asosiy kapitalga investitsiyalar o'sish sur'atlarini moliyalastirish manbalari bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich kafolatlanmagan va boshqa xorijiy investitsiya va kreditlarda kuzatilib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 290,9 % ni tashkil qildi. Bunday yuqori o'sishga tabiyiy gazni qazib olishga va respublikaning qubla tumanlaridagi ekin maydonlarini lazerli tekislash yirik investitsiya loyihalari doirasida o'zlashtirilgan investitsiyalar sabab bo'ldi.

Shuningdek, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hisobidan moliyalashtirilgan ivesititsiyalar o'tgan yilning mos davriga nisbatan 6,1 % li punktga ga ko'paydi. Qorao'zak tumanida sement ishlab chiqarishini kengaytirish, Amudaryo tumanida o'simlik moyini ishlab chiqarishni tashkil qilish, mato va ip-kalava ishlab chiqarishni kengaytirish bo'yicha loyihalar investitsion faollik bilan izohlash mumkin.



QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI STATISTIKA BOSHQARMASI

Moliyalashtirish manbalari bo'yicha tumanlar kesimida asosiy kapitalga investitsiyalar:

	Jami asosiy kapitalga investitsiyalar, mldr. so'm	shu jumladan, moliyalashtirish manbalari bo'yicha		
		Respublika byudjeti	Korxona va tashkilotlarning o'z mablag'lari	Aholining o'z mablag'lari
Qoraqalpog'iston Respublikasi	1398,5	84,2	506,3	177,6
Nukus sh.	365,8	49,4	173,8	22,2
tumanlar:				
Amudaryo	70,2	0,1	7,6	14,3
Beruniy	72,2	1,9	17,7	29,7
Bo'zatov	7,3	0,8	0,2	1,0
Qorao'zak	124,5	1,0	48,1	2,4
Kegeyli	30,7	1,0	9,1	9,0
Qo'ng'iroq	141,7	1,2	48,7	8,9
Qonliko'l	33,7	0,8	10,1	7,6
Mo'ynoq	83,9	8,6	20,0	5,7
Nukus	43,8	4,9	6,1	16,6
Taxiatosh	42,8	0,6	27,3	9,1
Taxtako'pir	23,4	0,9	12,2	3,8
To'rtko'l	84,4	3,7	40,9	4,7
Xo'jayli	53,5	2,3	30,2	4,4
Chimboy	44,7	4,1	16,9	14,6
Shumanay	35,7	0,1	24,3	4,7
Ellikqa'a	140,2	2,8	13,1	18,9





QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI STATISTIKA BOSHQARMASI

	<i>shu jumladan, moliyalashtirish manbalari bo'yicha:</i>			
	Xorijiy investitsiya va kreditlar	Suv ta'minoti va kanalizatsiya tizimlarini rivojlantirish jamg'armasi	Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi	Bank kreditlari va boshqa tashkilotlarning qarz mablag'lari
Qoraqalpog'iston Respublikasi	354,7	0,2	24,3	251,2
Nukus sh.	14,5	-	24,3	81,6
tumanlar:				
Amudaryo	38,6	-	-	9,6
Beruniy	5,3	-	-	17,6
Bo'zatov	4,2	-	-	1,1
Qorao'zak	59,5	-	-	13,5
Kegeyli	3,3	0,2	-	8,1
Qo'ng'irot	81,4	-	-	1,5
Qonliko'l	3,9	-	-	11,3
Mo'ynoq	42,6	-	-	7,0
Nukus	10,0	-	-	6,2
Taxiatosh	-	-	-	5,8
Taxtako'pir	3,3	-	-	3,2
To'rtko'l	2,8	-	-	32,3
Xo'jayli	1,5	-	-	15,1
Chimboy	0,4	-	-	8,7
Shumanay	3,2	-	-	3,4
Ellikqala	80,2	-	-	25,2

**2021- yil yanvar-mart oylarida tumanlar bo'yicha
asosiy kapitalga investitsiyalar**







To'rtko'l tumani

o'sish sur'ati

86,0 %

Investitsiyalar hajmi,
mlrd. so'm

84,4

Qoraqalpog'iston
Respublikasidagi ulushi

6,0 %



Xo'jayli tumani



113,8 %

53,5



3,8 %



Chimboy tumani



97,0 %



44,7



3,2 %



Shumanay tumani



201,1 %



35,7



2,6 %



Ellikqa'a tumani



74,6 %



140,2



10,0 %

Hududlar kesimida asosiy kapitalga investitsiyalar o'zlashtirilishi bo'yicha o'tgan yilning mos davriga nisbatan eng yuqori o'sish sur'ati 651,8 % ga o'sib, Bo'zatov tumanida kuzatildi. Bu asosan chorvachilikni rivojlantirish uchun o'zlashtirilgan xorijiy kreditlar bilan bog'liq.

Shuningdek, Mo'ynoq tumanida ham yuqori o'sish surati kuzatilib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 229,6 % ni tashkil qildi. Bunday natijani uglevodorod qazib chiqarish dasturi doirasida o'zlashtirilgan investitsiyalar bilan izohlash mumkin.

Shumanay tumanida asosiy kapitalga investitsiyalar hajmining o'tgan yilning mos davriga nisbatan 201,1 % ni tashkil etishi, asosan to'qimachilik maxsulotlari ishlab chiqarish quvvatlarining ishga tushirilishi bilan bog'liq.

Respublikada asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmi bo'yicha yuqori ulush Nukus shahri – 26,2 %, Ellikqa'l tumani – 10,0 % va Qorao'zak tumanida – 8,9 % kuzatildi.

2021- yil yanvar-mart oylarida investitsiyalarning o'sish sur'atlari, % da



Asosiy kapitalga investitsiyalarning texnologik tarkibi

56,8 %

**Mashina, uskuna,
inventar**

36,5 %

**Qurilish-
montaj ishlari**

6,7 %

**Boshqa
xarajatlar**



QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI STATISTIKA BOSHQARMASI

Qoraqalpog'iston Respublikasi bo'yicha asosiy kapitalga investitsiyalarning texnologik tarkibida mashina, uskuna va inventarlarga 793,8 mlrd. so'm investitsiyalar o'zlashtirilgan bo'lib, jami investitsiyalarning 56,8 % ini tashkil etdi, qurilish montaj ishlari bo'yicha 510,5 mlrd. so'm (jami investitsiyalardagi ulushi 36,5 %) va boshqa xarajatlarga 94,2 mlrd. so'm (6,7 %) o'zlashtirildi.

Hududlar kesimida jami asosiy kapitalga investitsiyalar hajmida qurilish-montaj ishlaringin ulushi bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Mo'ynoq tumanida kuzatildi – 69,3 % yoki 58,2 mlrd. so'm.

Qurilish-montaj ishlaringin ulushi bo'yicha eng quiyi daraja Qorao'zak tumanida kuzatilib, 15,9 % ni yoki 19,8 mlrd. so'mni tashkil etdi va mos ravishda, ushbu tumanda mashina, uskunalar va inventarlarga xarajatlar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich – 81,8 % yoki 101,8 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Asosiy kapitalga investitsiyalarning takror ishlab chiqarish tarkibi

**Yangi qurilish-
33,2 %**

**Kengaytirish,
rekonstruksiya,
modernizatsiya - 33,2 %**


**Boshqa yo'naliishlar-
33,6 %**

Joriy hisobot davrida ham asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning katta qismi boshqa yo'naliishlarga yo'naltirildi. Boshqa yo'naliishlarga yo'naltirilgan investitsiyalar hajmi 470,1 mlrd. so'mni tashkil etib, jami o'zlashtirilgan investitsiyalarning 33,6 % ini tashkil etdi.

Yangi qurilishga yo'naltirilgan investitsiyalar hajmi 464,3 mlrd. so'mni tashkil etib, jami o'zlashtirilgan investitsiyalarning 33,2 % ini tashkil etdi.

Iqtisodiyotda mavjud obyektlarni kengaytirish, rekonstruksiya qilish, modernizatsiyalash va texnik qayta qurollantirishga yo'naltirilgan investitsiyalar 464,1 mlrd. so'mni tashkil etib, jami o'zlashtirilgan investitsiyalarning 33,2 % ini tashkil etdi.

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha asosiy kapitalga investitsiyalar,
yakunga nisbatan % da**





QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI STATISTIKA BOSHQARMASI

Asosiy kapitalga xorijiy investitsiya va kreditlar

mldr. so'm

	Jami	Shu jumladan:		
		To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar	O'z.R. kafolati ostida xorijiy kreditlar	Kafolatlanmagan xorijiy kreditlar
Qoraqalpog'iston Respublikasi	354,7	63,0	58,9	232,8
Nukus sh.	14,5	5,2	-	9,3
<i>tumanlar:</i>				
Amudaryo	38,6	38,6	-	-
Beruniy	5,3	-	-	5,3
Bo'zatov	4,2	-	0,1	4,1
Qorao'zak	59,5	-	0,1	59,4
Kegeyli	3,3	3,2	0,1	-
Qo'ng'iroq	81,4	13,4	-	68,0
Qonliko'l	3,9	2,3	-	1,6
Mo'ynoq	42,6	-	-	42,6
Nukus	10,0	-	0,1	9,9
Taxtako'pir	3,3	-	-	3,3
To'rtko'l	2,8	-	-	2,8
Xo'jayli	1,5	-	-	1,5
Chimboy	0,4	0,3	0,1	-
Shumanay	3,2	-	-	3,2
Ellikqa'a	80,2	-	58,4	21,8

Asosiy kapitalga xorijiy investitsiya va kreditlar hisobidan joriy davrda 354,7 mlrd. so'm o'zlashtirilgan bo'lib, jami o'zlashtirilgan investitsiyalarning 25,4 % ini tashkil etdi.

Xorijiy investitsiyalar hisobidan o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmi 63,0 mlrd. so'mni tashkil etib, xorijiy kreditlar hisobidan bo'lsa 291,7 mlrd. so'mni o'zlashtirildi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xorijiy investitsiya va kreditlar tarkibi, % da

27,8 %



Qishloq xo'jaligi

34,0 %



Tog'-kon sanoati

31,9 %



Qayta ishlash sanoati

1,4 %



Axborot va aloqa

0,9 %



Elektr, gaz bilan ta'minlash

3,1 %



Ulgurji va chakana savdo

0,9 %

Boshqalar

Investitsiyalar va qurilish statistikasi bo'limi

Aloqa telefoni: (61) 224-92-14
222-75-91